ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 05.06.2026 · Accepted: 05.08.2026 · Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/h9kmqd39

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Animatsion film musiqasida obrazlarni ifodalashning leytmotiv va tembr-dramaturgik xususiyatlari

(Leitmotif and timbral dramaturgical features of character portrayal in animated film music)

Sitora Narturaeva

Department of Composition, Bastakors and General Piano
I The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: sitoranarturayeva23@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada animatsion kino musiqasida qahramonlar xarakterini ochib berishda leytmotiv tizimi va tembrlar dramaturgiyasining badiiy-estetik hamda kompozitsion imkoniyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda leytmotivning animatsion film dramaturgiyasidagi o‘rni, uning qahramonni identifikatsiya qilish, psixologik holatini ifodalash, obraz rivojini ko‘rsatish va kelgusidagi dramatik voqealarga ishora berish kabi funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, leytmotivning ritm, lad, garmoniya, faktura, temp va orkestrlashtirish vositalari orqali turli dramaturgik vaziyatlarga mos ravishda transformatsiyalanishi ko‘rib chiqiladi. Maqolada jahon animatsion kinosining “Up” (“Tepaga”), “WALL-E” va “Coco” filmlari musiqiy materiali misolida qahramon obrazini yaratishda leytmotiv va tembrlarning o‘zaro munosabati tahlil etiladi. Xususan, musiqiy mavzuning turli tembrlarda, registrlarda va orkestr tarkibida namoyon bo‘lishi qahramonning xarakteri, ichki kechinmalari, ruhiy o‘zgarishlari hamda boshqa obrazlar bilan munosabatlarini ochib berishi aniqlanadi. Tadqiqot natijasida leytmotiv qahramonning musiqiy identifikatori sifatida, tembr esa ushbu obrazning emotsional va semantik mazmunini boyituvchi vosita sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Leytmotiv va tembr dramaturgiyasining uyg‘unligi animatsion filmning musiqiy dramaturgiyasini shakllantirib, tasvir, syujet va tovush o‘rtasidagi badiiy yaxlitlikni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: animatsion kino, leytmotiv, tembr dramaturgiyasi, qahramon obrazi, musiqiy dramaturgiya, musiqiy xarakteristika, orkestrlashtirish, leytmotiv transformatsiyasi, kino musiqasi, tovush dramaturgiyasi.

Abstract

This article examines the artistic, aesthetic, and compositional potential of leitmotif systems and timbral dramaturgy in revealing character in animated film music. It analyzes the role of the leitmotif in animated film dramaturgy and its functions in identifying a character, expressing their psychological state, tracing their development, and foreshadowing dramatic events. The article also considers

how leitmotifs are transformed to suit different dramatic situations through rhythm, mode, harmony, texture, tempo, and orchestration. Using the musical material of the animated films Up, WALL-E, and Coco as examples, it explores the relationship between leitmotifs and timbres in shaping character. In particular, it shows how a musical theme presented through different timbres, registers, and orchestral combinations can reveal a character’s traits, inner feelings, psychological changes, and relationships with other characters. The study establishes that the leitmotif serves as a character’s musical identifier, while timbre enriches the image’s emotional and semantic content. The interplay of leitmotif and timbral dramaturgy shapes the musical dramaturgy of an animated film and creates artistic unity between image, plot, and sound.

Keywords: animated film, leitmotif, timbral dramaturgy, character image, musical dramaturgy, musical characterization, orchestration, leitmotif transformation, film music, sound dramaturgy.


Аннотация


В статье исследуются художественно-эстетические и композиционные возможности лейтмотивной системы и тембровой драматургии в раскрытии характера персонажей средствами музыки анимационного кино. Особое внимание уделяется функциональной роли лейтмотива в музыкальной драматургии анимационного фильма: идентификации персонажа, выражению его психологического состояния, отражению внутреннего развития образа и созданию предварительных указаний на последующие драматические события. Рассматривается также процесс трансформации лейтмотива посредством изменения ритма, лада, гармонии, фактуры, темпа и оркестровки в зависимости от конкретной драматургической ситуации. На материале музыки к анимационным фильмам «Вверх», «ВАЛЛ-И» и «Коко» анализируется взаимодействие лейтмотивной системы и тембровой драматургии в процессе создания музыкальных характеристик персонажей. Показано, что изменение тембрового состава, регистра, инструментального сочетания и характера оркестрового звучания позволяет раскрывать различные психологические состояния героя, его внутренние изменения и взаимоотношения с другими персонажами. В результате исследования обосновывается положение о том, что лейтмотив выполняет функцию музыкального идентификатора персонажа, тогда как тембр обогащает его эмоционально-смысловое содержание. Их взаимодействие способствует формированию целостной музыкальной драматургии анимационного фильма и обеспечивает художественное единство изображения, сюжета и звуковой организации.

Ключевые слова: анимационное кино, лейтмотив, тембровая драматургия, образ персонажа, музыкальная драматургия, музыкальная характеристика, оркестровка, трансформация лейтмотива, музыка кино, звуковая драматургия.

Animatsion filmlarda qahramon xarakterini ochish faqat tasvir, dialog yoki syujet harakati orqali emas, balki musiqiy dramaturgiya vositasida ham amalga oshiriladi. Animatsion filmlar uchun yaratilgan musiqaning mazmuniy va dramatik qatlamini tematik hamda leytmotiv texnikalari tashkil etadi. Leytmotiv dramaturgiyasi opera va badiiy kinematografiya tajribasidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, u musiqiy obrazni qahramon, vaziyat yoki g‘oya bilan mustahkam bog‘lash imkonini beradi. Leytmotiv ko‘pincha ixcham, qisqa ritm-intonatsion formula shaklida namoyon bo‘ladi, chunki bu janrda obrazlarning tez va aniq idrok qilinishi juda muhimdir. U muayyan qahramon, hodisa, tuyg‘u yoki g‘oya bilan bog‘langan takrorlanuvchi musiqiy mavzu bo‘lganligi sababli film davomida turli vaziyatlarda qayta paydo bo‘lib, obrazning mazmuniy markazini eslatib turadi. Bu usul opera san’atidan boshlab kino, televideniye va videoo‘yinlargacha keng tarqalgan.

XIX asrda ushbu konsepsiya ayniqsa kompozitor R. Vagnerning opera turkumida alohida rivoj topdi. R. Vagnerning “Nibelung uzugi” tetralogiyasida yuzlab leytmotivlar mavjud bo‘lib, har bir qahramon (Zigfrid, Votan), his-tuyg‘u (muhabbat, qasos) va hatto buyum (uzuk, qilich) kabilar o‘z leytmotiviga ega va ular o‘zaro to‘qnashib, murakkab psixologik tarmoqni hosil qiladi:


25a
Molto lugubre
Лейтмотив судьбы
Tube
Timp.
pp
pp
25б
Molto lugubre
pp
Ottoni
pplunga
32а
Cor.
Лейтмотив золота
32б
Лейтмотив Доннера
32в
Tr-ba
Лейтмотив валькирий
ff
Belebend
28
V-c. solo
Тема любви Зигмунда и Зиглинды
p
più p
p
a
p
V-c.
C-b.
б
più p



Vagnerning bunday yangicha musiqiy yondashuvi keyingi davrdagi ko‘plab kompozitorlar ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, dastlabki kino san’atida ham bu uslub qo‘llanila boshladi: avvaliga ovozsiz filmlar jonli musiqa jo‘rligida namoyish etilgan bo‘lsa, keyinchalik bu tajriba maxsus film saundtreklarining shakllanishiga olib keldi.

Leytmotivlardan samarali foydalangan zamonaviy kompozitorlar qatoriga Jon Uillyams va Denni Elfmanni kiritish mumkin. Ular ushbu uslubni mashhur kinofilmlar va animatsion filmlar musiqasiga mahorat bilan tatbiq etganlar. Kino san’atidan tashqari, leytmotivlar televideniye va video o‘yinlarda ham keng qo‘llanilib, turli media shakllarida hikoya mazmunini kuchaytirish, obrazlarni esda qolarli qilish va tomoshabin yoki tinglovchining emotsional ishtirokini oshirishga xizmat qiladi. Qahramon ilk bor paydo bo‘lganida uning mavzusi sodda, qisqa va aniq ko‘rinishda berilishi mumkin. Syujet rivojlangani sari ushbu mavzu o‘zgaradi: ritmik tuzilma murakkablashadi, garmonik ranglar boyitiladi, tembr tarkibi kengayadi yoki aksincha, torayadi. Bu o‘zgarishlar qahramonning ichki rivojlanishini, voqea tusining almashishini yoki dramatik vaziyatning chuqurlashishini ifodalashi mumkin. Leytmotiv – bu qahramonni eslatib turuvchi musiqiy “belgi” bo‘lganligi sababli, u qisqa melodik formula, ritmik naqsh, garmonik burilish, ma’lum interval, tembr yoki hatto tovush effekti ko‘rinishida

bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, animatsion film shartli tasvirga asoslanganligi sababli leytmotiv texnikasi juda muhim hisoblanadi. Unda qahramonning tana harakati, mimikasi yoki tashqi ko‘rinishi real aktyor ijrosidek tabiiy bo‘lmasligi mumkin, shu sababli musiqa qahramon xarakterini yanada aniqroq “tushuntiradi” [1; 4-b].

Leytmotiv tizimi animatsion filmda quyidagi bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi:

Identifikatsiya funksiyasi. Tomoshabin qahramonni ko‘rmasdan ham uning musiqiy mavzusi orqali kim haqida gap ketayotganini his qiladi. Bu usul ayniqsa bolalar auditoriyasi uchun qulay, chunki takrorlanuvchi musiqiy obraz qahramonni tez eslab qolishga yordam beradi.

Psixologik funksiya. Musiqa qahramonning ichki kechinmalarini dialogsiz ham anglatadi. Tadqiqotlarda film musiqasi tomoshabinning qahramonga bo‘lgan munosabati, uning hissiy holatini tushunishi va empatiya darajasiga ta’sir qilishi ko‘rsatilgan.

Rivojlanish funksiyasi. Qahramon o‘zgargani sari uning leytmotivi ham o‘zgaradi. Masalan, boshida sodda va qisqa bo‘lgan mavzu keyinchalik kengayishi, uning orkestr cholg‘ulari tarkibi boyishi va ritmik tuzilishi mustahkamlanishi mumkin. Bu usul qahramonning yetilish jarayonini musiqiy tarzda ko‘rsatib beradi.

Foreshadowing – oldindan ishora berish funksiyasi. Qahramon hali sahnada ko‘rinmasdan, uning mavzusi eshitilishi mumkin. Bu kelajakdagi voqea, xavf, uchrashuv yoki dramatik burilishga ishora qiladi. Film tovush dramaturgiyasida musiqa va tovush elementlari hissiy yo‘naltirish, mavzuni kuchaytirish va voqealarning keyingi rivojiga ishora berish xususiyatiga ega.

Avvaliga ishonchsiz va ojiz ko‘ringan obraz film yakunida kuchli, qat’iyatli shaxsga aylansa, uning leytmotivi ham kuchli orkestrlashtirish, barqaror ritm va yorqin tembrlar orqali yangicha mazmun kasb etadi. Salbiy yoki sirli personaj uchun past registr, xromatik harakatlar, keskin dissonanslar, sovuq tembrlar yoki noturg‘un

ritmik tuzilma ishlatilishi mumkin. Bunda leytmotiv faqat qahramonni tanitish uchun emas, balki uning xarakteridagi o‘zgarishni ko‘rsatish uchun ham xizmat qiladi. Leytmotivning bunday variatsion transformatsiyasi uni turli syujet sharoitlariga moslashtirishga xizmat qiladi: lad, ritm, faktura, temp yoki orkestrovkaning o‘zgarishi natijasida bir xil musiqiy mavzu yangi semantik va emotsional ma’no kasb etadi. Shu o‘rinda leytmotiv texnikasining animatsion film musiqasida qanday ishlatilishini jahon animatsiyasining yorqin namunalari asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir [4; 6-b].

Masalan, “Up” (“Tepaga”) animatsion filmida leytmotiv texnikasining eng ta’sirchan namunalaridan biri Karl va Elli obrazlari bilan bog‘liq “Married Life” musiqiy mavzusida namoyon bo‘ladi. Michael Giacchino tomonidan yaratilgan ushbu musiqiy material filmning boshlang‘ich qismida deyarli dialogsiz epizodlar orqali qahramonlarning butun hayot yo‘lini, ularning orzulari, muhabbati, oilaviy baxti, vaqt o‘tishi va yo‘qotish hissini ifodalab beradi. Mazkur leytmotiv dastlab yengil valsga yaqin ritmik harakat, sodda melodik tuzilma va iliq tembrlar orqali yangrab, Karl va Elli o‘rtasidagi samimiy munosabat, hayotiy quvonch va oddiy insoniy baxtni musiqiy jihatdan aks ettiradi. Biroq syujet rivojida, ayniqsa Elli vafotidan keyingi sahnalarda ayni shu musiqiy mavzu yangi semantik mazmun kasb etadi: avval baxt va muhabbat ramzi sifatida eshitilgan leytmotiv keyinchalik xotira, sog‘inch, yolg‘izlik va yo‘qotish hissining ifodasiga aylanadi. Bu holat leytmotivning muhim dramaturgik xususiyati – semantik transformatsiyasini ko‘rsatadi [7; 8-b].


Ya’ni bir xil musiqiy mavzu filmning turli dramaturgik bosqichlarida har xil emotsional ma’no bilan boyiydi. Shu jihatdan, “Up” filmida leytmotiv faqat qahramonlarni tanituvchi musiqiy belgi bo‘lib qolmay, balki Karl obrazining ichki psixologik holatini chuqurlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tashqi tomondan qattiqqo‘l, yolg‘iz va odamovi ko‘rinadigan Karlning ichki dunyosida

sadoqat, mehr, yo‘qotilgan baxtga bog‘liqlik va o‘tmish xotiralari yashayotganini aynan musiqa orqali anglash mumkin bo‘ladi:



Demak, “Married Life” mavzusi film dramaturgiyasida qahramon xarakterining ichki qatlamlarini ochuvchi, xotira va emotsional tajribani musiqiy obrazga aylantiruvchi muhim leytmotiv vazifasini bajaradi.

“WALL-E” animatsion filmida ham leytmotiv tizimi va tembr dramaturgiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Filmning dastlabki qismida an’anaviy dialoglarning juda kamligi sababli qahramonlar xarakteri, ularning ichki holati va o‘zaro munosabatlari asosan musiqa hamda tovush dizayni orqali ochib beriladi:




Thomas Newman tomonidan yaratilgan musiqiy materialda orkestr vositalari, elektron tovushlar va noodatiy tembrlarning uyg‘unlashuvi filmning futuristik, texnologik va ayni paytda lirik-emotsional muhitini shakllantiradi. Wall-E obrazi bilan bog‘liq musiqiy tavsif nozik, sodda, biroz mexanik, ammo iliq intonatsiyalar orqali ifodalanadi. Uning mavzusida kichik melodik fragmentlar, yumshoq ritmik harakatlar va mayin orkestr bo‘yoqlari ustun bo‘lib, bu qahramonning bolalarcha qiziquvchanligi, yolg‘izligi, mehrga ehtiyoji va insoniy hislarga yaqin tabiatini ochib beradi. Eve obrazida esa mutlaqo boshqa tembr dramaturgiyasi qo‘llaniladi: elektron, silliq, fazoviy va futuristik tovushlar uning texnologik mukammalligi, harakatchanligi, sirli va sovuqroq xarakterini ifodalaydi. Biroq syujet davomida Wall-E va Eve o‘rtasidagi munosabat rivojlangani sari Eve bilan bog‘liq musiqiy material ham asta-sekin iliqroq, yumshoqroq va emotsionalroq tus ola boshlaydi. Bu holat leytmotivning transformatsion xususiyatini ko‘rsatadi: dastlab qahramonlarni bir-biridan ajratib turuvchi musiqiy belgilar keyinchalik ularning ruhiy


yaqinlashuvini ifodalovchi vositaga aylanadi. Shu jihatdan, “WALL-E” filmida leytmotiv tizimi nafaqat obrazlarni tanitish, balki ularning ichki o‘zgarishi, hissiy uyg‘onishi va o‘zaro munosabatlar dinamikasini musiqiy jihatdan ochib beruvchi muhim dramaturgik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Yana bir misol sifatida, “Koko” animatsion filmida leytmotiv tizimi oilaviy xotira, madaniy meros, avlodlar davomiyligi va shaxsiy o‘zlikni anglash g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Filmda musiqa oddiy fon elementi sifatida emas, balki syujetning mazmuniy markazini tashkil etuvchi asosiy dramaturgik vosita sifatida xizmat qiladi. Michael Giacchino tomonidan yaratilgan musiqiy materialda Miguel, Hector va Rivera oilasi bilan bog‘liq bir nechta mavzular mavjud bo‘lib, ular personajlarning xarakteri, ichki kechinmalari va o‘zaro munosabatlarini ochishga qaratilgan.

Xususan, Rivera oilasi bilan bog‘liq musiqiy mavzu filmning emotsional markazi sifatida talqin etiladi, chunki u oila, xotira va ajdodlar merosi g‘oyalarini birlashtiradi. Migel obrazining musiqiy tavsifida ritmik jonlilik, gitaraga xos tembrlar va harakatchan melodik chiziqlar ustun bo‘lib, bu uning yoshligi, qiziquvchanligi, musiqaga bo‘lgan kuchli intilishi va ichki erkinlikka intilish holatini ifodalaydi:



Gektor obraziga oid musiqiy material esa dastlab yengil, kulgili va biroz sarguzasht xarakterida eshitiladi; biroq syujet rivojlangani sari ushbu musiqiy tavsif chuqurlashib, qahramonning mehr, yo‘qotish, pushaymonlik va otalik tuyg‘usi bilan bog‘liq murakkab ichki olamini ochib beradi. Filmda “Remember Me” qo‘shig‘i ham muhim leytmotiv vazifasini bajaradi:



U dastlab sahnaviy va ommaviy ijro namunasi sifatida yangrasa, keyinchalik oilaviy xotira, mehr, avlodlar orasidagi ruhiy bog‘liqlik va unutmaslik ramziga aylanadi. Shu tariqa, “Koko” filmida bir musiqiy mavzuning turli dramaturgik vaziyatlarda yangi semantik ma’no kasb etishi leytmotivning transformatsion xususiyatini ko‘rsatadi. Natijada musiqa qahramonlarni xarakterlash, ularning ichki o‘zgarishini ko‘rsatish va filmning asosiy g‘oyasi – oila xotirasi hamda madaniy merosning inson hayotidagi ahamiyatini chuqur ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, leytmotiv har bir animatsion filmda turlicha dramaturgik vazifa bajaradi: u ayrim hollarda qahramonning ichki kechinmalarini ochsa, boshqa holatlarda oilaviy xotira, muhabbat, yo‘qotish, ezgulik

va yovuzlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik yoki obrazlar o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni ifodalaydi. Leytmotivning asosiy ahamiyati shundaki, u musiqiy mavzu, tembr yoki ritmik formula orqali qahramonni esda qolarli qiladi, uning xarakterini chuqurlashtiradi va syujet rivojiga emotsional mazmun bag‘ishlaydi. Shu bois animatsion film musiqasida leytmotiv nafaqat bezak elementi, balki obraz yaratish va dramaturgik fikrni ifodalashning muhim kompozitsion vositasi hisoblanadi.

Tembrlar dramaturgiyasi esa qahramon xarakterini ochishda alohida ifodaviy qatlamni tashkil qiladi. Har bir cholg‘u yoki ovoz turi o‘ziga xos semantik rangga ega. Masalan, nay, surnay, chang, dutor kabi milliy cholg‘ular qahramonni xalqona muhit, milliy ruh yoki an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘lashi mumkin. Skripka, violonchel yoki fortepiano esa obrazning lirik, nozik, ichki kechinmalarga boy tomonlarini ifodalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mis damli cholg‘ular – truba, trombon, valtorna – ko‘pincha tantanavorlik, qahramonlik, kuch va iroda obrazlarini kuchaytiradi. Past registrdagi cholg‘ular esa sirli, xavotirli yoki dramatik holatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Animatsion filmlarda tembr tanlovi ayniqsa muhim, chunki obrazlar ko‘pincha shartli, ramziy yoki fantastik xarakterga ega bo‘ladi. Bunday holatda musiqa qahramonning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra uning ichki mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Masalan, kulgili obraz uchun yengil, sakrovchi ritmlar, yog‘och damli cholg‘ular yoki noodatiy tovush effektlari ishlatilishi mumkin. Salbiy obraz esa dissonansli garmoniyalar, past registrlar, keskin tembrlar va notekis ritmik harakatlar orqali tavsiflanadi. Shu tariqa tomoshabin obrazning qanday xarakterga ega ekanini dialogsiz ham his qila oladi [1; 4; 7-b].

Leytmotiv va tembr dramaturgiyasi birgalikda qo‘llanganda qahramon obrazi yanada yaxlit va ta’sirchan namoyon bo‘ladi. Leytmotiv obrazning musiqiy “belgisi” sifatida xizmat qilsa, tembr ushbu belgiga rang, hissiy chuqurlik va dramaturgik yo‘nalish beradi. Bir xil leytmotiv turli tembrlar orqali yangicha ma’no

kasb etishi mumkin. Masalan, qahramonning mavzusi dastlab yakka cholg‘uda sokin eshitilsa, bu uning yolg‘izligi yoki ichki iztirobini bildiradi. Keyinchalik shu mavzu butun orkestr tomonidan ijro etilsa, bu obrazning kuchayishi, o‘zligini anglashi yoki g‘alabaga erishishini ifodalashi mumkin. Shuningdek, leytmotivning transformatsiyasi qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham ochib beradi. Ikki qahramonning mavzulari dastlab alohida-alohida eshitilib, keyinchalik bir-biriga yaqinlashsa yoki umumiy garmonik asosda birlashsa, bu ularning ruhiy yaqinlashuvi, do‘stligi yoki umumiy maqsad sari intilishini anglatadi. Aksincha, mavzularning to‘qnashuvi, dissonansli uyg‘unlashuvi yoki ritmik qarama-qarshiligi konfliktni kuchaytiradi. Demak, leytmotiv tizimi nafaqat alohida obrazni, balki butun syujet dramaturgiyasini ham tashkil etuvchi muhim musiqiy omildir.

Kompozitorlar har bir sahna uchun maxsus musiqa (leytmotiv, ritmik figuratsiya, tembr tanlovi) yaratib, tasvirdagi obrazning ma’nosini kuchaytirishga harakat qilishgan. Musiqa va obraz o‘rtasidagi sinxronlik, emotsional moslik va dramaturgik uyg‘unlik – animatsion kino estetikasi va kompozitorlik mahoratining asosiy mezonlaridandir. Aynan ana shu jihatlar zamonaviy kompozitorlik texnikalarining tanlanishiga, shakllanishiga va funksional ishlatilishiga ta’sir qiladi. Bu uyg‘unlik nafaqat tomoshabinning idrokini boshqaradi, balki filmning badiiy salohiyatini ham belgilab beradi. Multfilm uchun musiqa yaratishda kompozitor uchun muhim resurslar – bu turli tovush shakllari va an’analarining uyg‘unligidir. Bunga musiqaning “sintetik badiiy matn”dagi illyustrativ imkoniyatlari, musiqiy bo‘lmagan tovush effektlaridan (shovqin, jonivorning qadam tashlashi, hushtak va boshqalar) foydalanish hamda elektronika qo‘llanilishi kiradi [5].

Xulosa qilib aytganda, qahramonlar xarakterini ochishda leytmotiv tizimi va tembrlar dramaturgiyasi animatsion film musiqasining eng muhim ifodaviy vositalaridandir. Leytmotiv obrazga esda qolarli musiqiy timsol beradi, tembr esa uning ruhiy holati, xarakteri va syujetdagi vazifasini aniqlashtiradi. Ushbu ikki

vositaning uyg‘un qo‘llanishi natijasida musiqa obraz yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi va filmning badiiy ta’sir kuchini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегизова И. С. Взаимодействие музыки и изображения в образной структуре мультипликационного фильма: дис. ... канд. искусствоведения. – Тбилиси, 1985. – 177 с.
2. Искусство мультипликации вчера, сегодня и завтра // Вопросы киноискусства: ежегодный историко-теоретический сборник / отв. ред. С. И. Юткевич. – М.: Наука, 1971. – Вып. 13. – С. 142–192.
3. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.
4. Шак Т. Ф. Музыка в структуре медиатекста: на материале художественного и анимационного кино. – Краснодар: КГУКИ; Планета музыки, 2010. – 461 с.
5. Чернышёв А. В. Медиамузыка: исследование. – М.: Издательство «Медиамузыка», 2013.
6. Goldmark D. Tunes for ’Toons: Music and the Hollywood Cartoon. – Berkeley: University of California Press, 2005. – 225 p.
7. Chion M. Audio-Vision: Sound on Screen / ed. by C. Gorbman. – New York: Columbia University Press, 1994. – 239 p.

References

1. Begizova, I. S. *Vzaimodeystviye muzyki i izobrazheniya v obraznoy strukture mul’tiplikatsionnogo fil’ma* [The Interaction of Music and Image in the Imagery Structure of an Animated Film]. PhD diss. in Art History, Tbilisi, 1985. 177 pp. (in Russian)
2. “Iskusstvo mul’tiplikatsii vchera, segodnya i zavtra” [The Art of Animation Yesterday, Today, and Tomorrow]. In *Voprosy kinoiskusstva: Yezhegodnyy istoriko-teoreticheskiy sbornik* [Questions of Cinema Art: Annual Historical and Theoretical Collection], edited by S. I. Yutkevich, no. 13, 142–192. Moscow: Nauka, 1971. (in Russian)
3. Lotman, Yu. M. *Struktura khudozhestvennogo teksta* [The Structure of the Artistic Text]. Moscow: Iskusstvo, 1970. (in Russian)
4. Shak, T. F. *Muzyka v strukture mediateksta: Na materiale khudozhestvennogo i animatsionnogo kino* [Music in the Structure of Media Text: Based on Feature and Animated Films]. Krasnodar: KGUKI; Planeta Muzyki, 2010. 461 pp. (in Russian)
5. Chernyshev, A. V. *Mediamuzyka: Issledovaniye* [Media Music: A Study]. Moscow: Izdatel’stvo “Mediamuzyka,” 2013. (in Russian)
6. Goldmark, D. *Tunes for ’Toons: Music and the Hollywood Cartoon*. Berkeley: University of California Press, 2005.
7. Chion, M. *Audio-Vision: Sound on Screen*. Edited and translated by C. Gorbman. New York: Columbia University Press, 1994.